
Modallik kategoriyasining ingliz va o'zbek ertaklarida madaniy ma'no ifodalashi

Sattorova Shahlo Shavkat qizi

*Tayanch doktorant,
Buxoro davlat universiteti*

Annotatsiya *Jahon tilshunosligida modallik kategoriyasini o'rganish, ularni tadqiq etish sohasida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu lingvistik tushunchaning yuzaga keltiruvchi psixolingvistik va ekstralingvistik sabablar, ularning o'ziga xos jihatlari turli aspektda o'rganish, ayniqsa, qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy aspektda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola modallik kategoriyasining universal kategoriya sifatida rivojlanish jarayoni haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi hamda modallik kategoriyasining madaniyat va til munosabatida tutgan o'rnini, ertaklarda lingvomadaniyatni ifodalash usullarini yoritib beradi.*

Kalit so'zlar *Modallik, universal kategoriya, mantiq, madaniyat, kommunikatsiya, mayl, metatillik, lingvokulturologiya, mentalitet*

Культурное значение категории модальности в английских и узбекских сказках

Сатторова Шахло Шавкатовна

*Базовый докторант,
Бухарский государственный университет*

Аннотация *В мировой лингвистике проведено большое количество научных исследований в области изучения и исследования категории модальности. Большое значение имеет изучение психолингвистических и экстралингвистических причин возникновения этого лингвистического понятия, их специфики в различных аспектах, особенно в сопоставительном аспекте неродственных английского и узбекского языков. Статья содержит информацию о развитии категории модальности как универсальной категории и проливает свет на её место во взаимоотношениях культуры и языка, а также на способы выражения лингвокультуры в сказках.*

Ключевые слова *Модальность, универсальная категория, логика, культура, коммуникация, склонность, металингвистика, лингвокультурология, менталитет*

The cultural meaning of the category of modality in English and Uzbek fairy tales

Sattorova Shakhlo Shavkatovna

*Basic doctoral student,
Bukhara State University*

Annotation *In world linguistics, a great deal of scientific research has been conducted in the field of studying and investigating the category of modality. It is of great importance to study the psycholinguistic and extralinguistic reasons that give rise to this linguistic concept, their specific aspects in various aspects, especially in the comparative aspect of the non-related English and Uzbek languages. This article contains information*

about the development of the category of modality as a universal category and sheds light on the place of the category of modality in the relationship between culture and language, as well as the ways of expressing linguistic culture in fairy tales.

Keywords *Modality, universal category, logic, culture, communication, inclination, metalinguistics, linguoculturology, mentality*

Kirish

Modal mantiq muammosi uzoq qadimda vujudga kelgan. Modallik, ya'ni so'zlayotgan shaxs nuqtai-nazaridan ularning nutqi voqelikka munosabati qanday bo'lishi haqida Arastuga qadar birinchi bo'lib "eng mashhur, balkim birinchi ham bo'lgan" Abderalik Protagor fikr bildirgan. Uning "Munozara ilmi" asari saqlanib qolmagan, biroq yetti asrdan so'ng Diogen Laertskiy o'zining "Mashhur faylasuflarning hayoti, ta'limi va hikmatlari" qomusiy to'plamida (milodiy II va III asrlar) "Protagor nutqni to'rtta tur – iltimos, savol, javob, buyruq"ga bo'lgani va "ularni nutq tarmoqlari" deb ataganini eslatib o'tgan (Freydenberg, 1936). Zamonaviy lingvopragmatika nuqtai-nazaridan Protagor ko'rsatgan "tarmoqlar" so'zlayotgan shaxs u yoki bu iborani gapirayotgan shaxs xabar qiladigan maqsad bo'yicha farqlanadigan nutq harakatlarining keng modal sinflariga muvofiq keladi. Bu Charlz Pirsning semiotikasidagi "pragmatika" atamasi paydo bo'lganga va zamonaviy tarixda til muloqotlarini o'rganish shiddatli rivojlanganga qadar ancha oldinroq lingvistik pragmatikaga asos solgan. Professor N.B. Mechkovskayaning ta'kidlashicha, "aloqa (kommunikatsiya) va tilni o'rganish tarixida nutqning turli xilligi va variantligi, muloqotning turli maqsadlari, usullari va uslublarining mavjudlik g'oyasining o'zi juda muhim bo'lib hisoblanadi" (Mechkovskaya, 2017). Shu tarzda, inson tilning leksikasi va grammatikasiga e'tibor qaratganga qadar, uni muloqot jarayonining o'zi qiziqtirib qolgan, nutq yordamida turli muloqot maqsadlari (illokutsiyalar) ifodalanishi haqidagi savol paydo bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili

Modallik haqidagi ta'limot asoslari Arastu tomonidan uning "Analitiklar", "Metafizika", "Nomlarning sharhi" kabi asarlarida berilgan. Ushbu asarlarda "modallik" atamasi uchramaydi, Arastu uning o'rniga ἔγκλις 'mayllik so'zidan foydalangan va uni so'zlayotgan shaxs o'zining fikrini (masalan, sillogizmdan chiqarish (xulosa)) ni naqadar ishonchli hisoblashi bilan bog'lagan. Lotin-rus lug'atida modus atamasi o'zining 11-ma'nosida "mayl" deb ta'riflangan. Keyinchalik yunon aleksandriya grammatikalarida (eramizdan avvalgi II asr) va undan keyin rim lotin va o'rta asr grammatikalarida modallikning Arastu belgilab bergan ἔγκλις 'bilan atalishi nutqda xabar berilayotgan harakat "mayllari"ning voqelikka nisbatan munosabati bo'yicha turlicha tushuniladigan fe'l mayllari haqida tasavvurlarga asos bo'ldi. Fe'l mayliga birinchi bo'lib noma'lum aleksandriya grammatikasida ta'rif berilgan: "Mayl deb, ko'ngil intilishi (mayli, harakati) qandayligini ko'rsatuvchi so'z shakliga aytiladi" (shuningdek, ta'riflanayotgan atamaning ichki shakliga asoslangan shunga o'xshash ta'rif: "Mayl – bu ko'ngil (dil) ning mayli, istagi, xohishi"). Frakiyalik Dionisiyning hozirgacha saqlanib qolgan aleksandriya yunon tili grammatikasida (miloddan avvalgi II asr) fe'l mayli tushunchasiga ta'rif berilmagan, biroq zamonaviy terminologiya bilan bimalol taqqoslashimiz mumkin bo'lgan mayllar ro'yhati berilgan: "Mayllar beshta bo'ladi: aniqlik mayli, buyruq mayli, istak mayli, ergashtirish mayli, noaniq mayl". Arastu bunday modal ma'nolarni "zarur", "ehtimol", "imkoni yo'q", "tasodifiy" larga ajratgan. Arastu nuqtai-nazaridan "har qanday xabar biror istak yoki

uning uchun zarur bo'lgan harakat, yoki ehtimol bo'lgan harakat haqidagi ma'lumotni anglatadi; va ushbu fikrlardan ularga biror-bir mayl berilgan yoki berilmaganidan kelib chiqib ayrimlari ta'kidlash, boshqalari inkor, uchinchilari noaniq bo'lib tushuniladi (Aristotel, 1952).

Aristotel apodiktik fikrlarni (yunon tilidan apodeikticos – isbotli, ishonchli) ajratib ko'rsatgan – bu zarurlikka asoslangan ishonchli fikrlar va haqiqiyliqi fikrlash orqali aniqlanadigan va ularda ta'kidlanayotgan fikrlarga zid bo'lgan, ehtimollikni istisno qilmaydigan dialektik fikrlar. Zamonaviy bilish nazariyasida Arastuning ikkita mantiqiy "mayllari"ning bir biriga qarama-qarshi qo'yilishi ishonchli (isbotlangan) bilim va taxmin (gipoteza)ning muxolifatiga, shuningdek zamonaviy modal mantiqning epistemik va aletik modalliklariga mos keladi. Shunday qilib, zamonaviy mantiqning ko'pgina tushunchalari antik va o'rta asr mantiqshunoslarining ta'limotlaridan boshlangan: "Modal mantiq – bu "zarur" va "ehtimol" kabi so'zli iboralar o'rganiladigan zamonaviy noan'anaviy mantiqning yo'nalishlaridan biri". Modallik tushunchasiga nisbatan kengroq yondashuv A.A.Ivinning asarlarida keltirilgan: "Modallik – bu u yoki bu nuqtai-nazardan aytilgan iborada belgilangan aloqaning baholanishi". Modalli konkretlash (aniqlashtirish) ko'p hollarda "zarur", "ehtimol", "isbotlanadigan", inkor etiladigan", majburiy", "ruxsat etilgan", "yaxshi", "yomon" kabi tushunchalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi (Ivinn, 2004). Hozirgi vaqtda XX asrning o'rtalaridan universitetlarda fan qatoriga qo'shilgan modal mantiq rivojlanishda va yangi modal tushunchalar va ma'nolar bilan boyishda davom etmoqda: "Oxirgi o'n yillikda modal mantiq shiddat bilan rivojlanmoqda, shu jumladan yangidan-yangi modal tushunchalarni o'z ichiga olmoqda. Uni asoslash usullari takomillashtirilgan bo'lib, bu modal mantiqqa yangi kuch baxsh etdi va uni zamonaviy mantiqiy tadqiqotlar markaziga qo'ydi". Mantiqqa bag'ishlangan turli asarlarda

berilgan modallik turlarining tarkibi va guruhlari xilma-xil. "Mantiq lug'ati" mualliflari ta'kidlaganidek, "modal baholarning turli xil mumkin bo'lgan xillari ichidan u (ya'ni modal mantiq) kam sonni, eng qiziqclarini o'z ichiga oladi". Ushbu maqolada kundalik muloqotda muntazam ishtirok etadigan modallik turlari ko'rib chiqiladi: bilish (aletik va epistemik), deontik, aksiologik, metatillik, teleologik modalliklar.

Tadqiqot metodologiyasi

Deskriptiv-tahliliy metod – ertaklarda modallik kategoriyasining ifoda vositalarini aniqlash va ularni struktura tuzilishi jihatdan tahlil qilish;

Lingvokulturologik tahlil – modallik vositalarining madaniyatni ifodalashda, ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatishda va mental holatni bildirishdagi rolini aniqlash maqsadida;

Taqqosloviiy usul - ingliz va o'zbek ertaklari matnida qo'llanilgan modal so'zlar, modal fe'llar va boshqa modallik vositalarini qiyosiy o'rganish orqali farqlarni aniqlash va o'xshashliklarni topish;

Tadqiqot manbasi sifatida "O'zbek xalq ertaklari" to'plami va "English fairytales" tanlab olindi va jami 20 ta o'zbek ertagi hamda 20 ta ingliz ertaklari tahlilga tortildi.

Muhokama va Dalillar

Tadqiqot natijalariga ko'ra ingliz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasi madaniyatni ifodalashning asosiy vositalaridan biri ekanligi aniqlandi.

Quyida modallik ifoda vositalari, ularning leksik ma'nolari hamda ingliz va o'zbek ertaklarida ifodalaydigan madaniy ma'nolari keltirilgan.

Modallik ifodasi	Modallik ma'nosi	Ingliz ertaklarida madaniy ma'no	O'zbek ertaklarida madaniy ma'no
May, might/ mumkin, ehtimol, ehtimoli bor	Ehtimollik	I might join you if I finish my work early.	Ehtimol, bo'ron uchun ham meni aybdor qilarsiz?
Can, could, certainly / qila oladi, aminmanki	Ishonch	I will certainly call to see my friend.	U chindan ham menda chuqur taassurot qoldirdi
Must, have to/ shart, majbur, lozim	Majburiyat	You ought to be helping your mother with your salary.	Basharti sir saqlashga va'da bergan bo'lsang, aytmnasliging kerak.
Can, may/ mumkin, qila oladi	Ruhsat	I was allowed to pick my part	Menga yaxshi joyni egallashga ruxsat berdilar.

Jadval 1. Modallik ifoda vositalari

Ingliz va o'zbek ertaklarida bu modallik ma'nolari o'ziga xos usullarda namoyon bo'ladi.

Ishonchni (Certainty) bildiruvchi modal ifodalar

Ingliz ertaklarida: Ingliz ertaklarida ishonchni ifodalovchi modal vositalarga modal fe'llar hamda certainly, surely, of course kabi so'zlar kiradi. Bunda biror voqeaning sodir bo'lishi aniq ekanligi yoki biror qahramon qiyin ish-harakatni bajarishga qodir ekanligi ko'rsatiladi.

- *"You shall go to the ball, Cinderella!"* (Siz ballga borasiz, Zolushka!)
- *"This must be the house of the three bears."* (Bu albatta uchta ayiqning uyi bo'lishi kerak.)
- *"The prince will surely come to rescue her."* (Shahzoda albatta uni qutqarishga keladi.)

O'zbek ertaklarida: O'zbek tilida modal ma'nolar har xil usullarda hosil qilinadi. Bularga yuklama, ko'makchi fe'l, shaxs-son qo'shimchalari hamda kirish so'zlarni misol qilib olish mumkin.

- *"Albatta, bu ishning ustidan kelasiz."* (Kulupoy)
- *"Siz shoh bo'lasiz"* (Zarbdor)
- *"Bu tilsimni faqat sen yecha olasan."* (Alpomish)

Ehtimol (Possibility) bildiruvchi modallar: Ingliz va o'zbek tillarida ehtimol madaniy ma'nosi eng ko'p qo'llaniladigan modallik

kategoriyasidan biri hisoblanadi. Bu ma'no asosan ertakning markaziy voqealar sodir bo'lish jarayonida yakun haqidagi ehtimoliy taxminlarni aytish maqsadida qo'llaniladi.

Ingliz ertaklarida:

- *"It might be a magic bean."* (Bu sehrli loviya bo'lishi mumkin.)
- *"She could be under a spell."* (U sehr ostida bo'lishi mumkin.)
- *"Perhaps the wolf will come."* (Ehtimol bo'ri keladi.)
- O'zbek ertaklarida: *"Balki u yana qaytib kelsa."* (Chol va kampir)
- *"Ehtimol, bu yo'lda bizga yordam beradigan kimdir bor."* (Tohir va Zuhra)
- *"Shoyad, bu daraxt tagida boylik yashiringan bo'lsa."* (Ajdaho va donishmand)

Ruxsat (Permission) bildiruvchi modallar: ruhsatni ifodalovchi modallik har ikki tilde ham ruhsat so'rash va ruhsat berish ma'nolarida ertaklarda eng ko'p ishlatiladigan ifoda birliklaridan biri hisoblanadi.

Ingliz ertaklarida:

- *"You may enter the castle."* (Siz qal'aga kirishingiz mumkin.)
 - *"Can I take this rose?"* (Men bu atirgulni olsam bo'ladimi?)
 - *"You are allowed to make three wishes."* (Sizga uchta tilak tilashga ruxsat beriladi.)
- O'zbek ertaklarida:

- "Sizga bu yerda yashashga ruxsat." (Qirq qiz)
- "Olaming chetiga borishingiz mumkin." (Xumorcha)
- "Sen menga turmushga chiqishing mumkin." (Yetti go'zal)

Majburiyat (Obligation) bildiruvchi modallar: majburiyatni ifodalash ertak qahramoniga nisbatan uddalash qiyinroq bo'lgan ish-harakatni bajarish va ushbu ishni amalga oshirish natijasida qandaydir mukofotga ega bo'lish sahnasi bilan birga boradi.

Ingliz ertaklarida:

- "You must return before midnight." (Siz yarim kechgacha qaytishingiz kerak.)
- "I have to find the golden key." (Men oltin kalitni topishim kerak.)
- "We should help those in need." (Biz muhtojlarga yordam berishimiz kerak.)

O'zbek ertaklarida:

- "Siz bu vazifani bajarishingiz kerak." (Alpomish)
- "Men buni qilishim lozim." (Chol va amir)
- "Biz uni qutqarishimiz shart." (Tohir va Zuhra)

Qiyosiy tahlil

O'xshashliklar:

1. Ikkala madaniyatda ham modallik ma'nolari shaxs, vaqt va holatga bog'liq holda ifodalanadi.
2. Ertak qahramonlarining vazifalari va majburiyatlari o'xshash modallar orqali ifodalanadi.
3. Sehrli elementlar ehtimollik modallari bilan bog'liq holda keladi.

Farqlar:

1. Ingliz ertaklarida modallik ko'proq grammatik shakllar (may, might, must) orqali, o'zbek ertaklarida esa ko'proq so'zlar (kerak, lozim, shart) orqali ifodalanadi.
2. O'zbek ertaklarida maslahat va majburiyat bildiruvchi modallar ko'proq ishlatiladi.
3. Ingliz ertaklarida ruxsat so'rash va berish an'anaviy "may" modaliga bog'liq, o'zbek

ertaklarida esa "mumkin" so'zi ko'proq qo'llaniladi.

Ingliz va o'zbek ertaklarida modallik ma'nolarining ifodalanishida madaniy va lingvistik farqlar mavjud bo'lsa-da, ertaklarning asosiy maqsadi - odob-axloq, vazifa va qadriyatlar haqida ma'lumot berish - ikkala madaniyatda ham modallik vositalari orqali amalga oshiriladi. Bu modallar ertak qahramonlarining harakatlarini izohlashda, ularning majburiyatlarini ko'rsatishda va sehrli elementlarni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Modallik kategoriyasini qiyoslashda tillararo lingvomadaniy farqlar yorqin ifodalanadi, zero modallik milliy obrazlar, ya'ni turli xalqlarning madaniy konseptlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu borada lingvomadaniyatshunoslikda har bir madaniyatning milliy qadriyatlari asosida o'ziga xos "konseptini" tadqiq etish imkoniyatlarini tadqiq etish konseptual tahlil haqida to'liq ma'lumot olish, modallik kategoriyasini kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida qiyosiy tadqiqi ma'lum bir jamiyatga xos milliy mentallikni lingvistik jihatdan tahlil etish imkoniyatini beradi. B.V.Panfilovning ta'kidlashicha, «tilda modallik kategoriyasi kabi turli-tuman, qarama-qarshi fikr bildirilgan va uning tildagi alohida ma'nolarining rang-barang tabiatichalik ko'p talqin qilingan kategoriya yo'q» (Panfilov, 1977).

Modallik kategoriyasi adabiyotning barcha sohalari: badiiy matnlarda, gazeta matnlarida, she'riy matnlarda, dialogik nutqda, ayniqsa, ertaklar matnida modallik kategoriyasining lingvokognitiv va lingvomadaniy qolaversa, modallikning turli-tuman, rang-barang semantikasi tilning tipologik xususiyatlarni ochib berishga, shuningdek, ularni ifodalashda lisoniy vositalar ichki lisoniy dunyo manzarasining milliy xususiyatini aniq aks ettirishga, bir so'z bilan aytganda til va madaniyatning o'zaro munosabatlari natijasi anglashga imkon beradi.

Shunday qilib, til va madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi, modallik kategoriyasining rivojlanishida til va madaniyatning roli masalasi haqida fikr yuritar ekanmiz, bu muammolar ham muloqotning shakl va mahsuldorligini o'stirishda, ham chet tillarni o'qitishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlash joizdir.

Demak, ma'lum bir tilda so'zlashuvchi kishi nafaqat til tashuvchisi, balki shu tilda so'zlashuvchi millat madaniyatining ham tashuvchisi vazifasini bajaradi. Shu sababdan til millat vakilining milliy-madaniy mentalitetini namoyon etish xususiyatiga egadir. Zero, lingvokulturologiya lisoniy faktlarni ma'naviy-madaniy xususiyatlari orqali tadqiq etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Freidenberg, O. M. (Ed.). (1936). *Античные теории языка и стиля*. Соцэкгиз.
2. Mechkovskaya, N. B. (2017). *Философия языка и коммуникации*. Флинта; Наука.
3. Аристотель. (1952). *Аналитики первая и вторая*. Госполитиздат.
4. Ивин, А. А. (Ed.). (2004). *Философия: энциклопедический словарь*. Гардарики.
5. Панфилов, В. В. (1977). *Категория модальности и её роль в конструировании предложения и суждения*.
6. Sattorova, S. S. (2022). Modallik ma'nolarining lingvistik asoslari. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*. <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/127>
7. Sattorova, S. S. (2022). Importance of modality in learning process. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 7. <http://sjii.indexedresearch.org>
8. Sattorova, S. S. (2024). Study and importance of modality category in world linguistics. *International Journal of Language Learning and Applied Linguistics*, 3(4), 82–85.
9. Sattorova, S. (2024). Initial theories on modality and development history of modality. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(10), 10–12.
10. Sattorova, S. S., & Jalolova, R. A. (2023). Loneliness, friendship, love and loss in *The Little Prince* as the main ideas. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 9(3), 71–77.
11. Sattorova, S. Sh. (2023). Lexic analysis of modality in English and Uzbek languages.
12. Shavkatovna, S. S. (2025). Description and interpretation of the category of "wish-desire" in English and Uzbek fairy tales. *American Journal of Multidisciplinary Bulletin*, 3(6), 530–535.
13. Sattorova, M. (2024). Analytical approaches to the Rudyard Kipling's poetry. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(10), 22–25. <https://inlibrary.uz/index.php/canrms/article/view/53767>